ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA RISKLARNI BOSHQARISH USULLARI

Muxamadeldor Raxmanov

Andijon davlat universiteti menejment kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida yuzaga keladigan risklar va ularni samarali boshqarish usullari tahlil qilinadi. To‘qimachilik tarmog‘ida ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, xomashyo ta’minotidagi uzilishlar, narxlarning o‘zgaruvchanligi hamda global bozor talablarining o‘zgarishi risk omillarini kuchaytiradi. Maqolada moliyaviy, operatsion, texnologik va tashqi iqtisodiy risklarning turlari ko‘rib chiqilib, ularni aniqlash, baholash va kamaytirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy risk menejment tizimlari, jumladan xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari to‘qimachilik korxonalarida barqaror faoliyatni ta’minlash va raqobatbardoshlikni oshirishda risklarni boshqarishning muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, risklarni boshqarish, ishlab chiqarish risklari, moliyaviy risklar, operatsion risklar, risk tahlili, risklarni baholash, risklarni minimallashtirish, logistika risklari, texnologik risklar, ISO 31000, barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya, korporativ boshqaruv.

Аннотация. В данной статье анализируются риски, возникающие на предприятиях текстильной промышленности, и методы эффективного управления ими. В текстильной отрасли сложность производственного процесса, перебои в поставках сырья, волатильность цен, а также изменения в требованиях глобального рынка усиливают факторы риска. В статье рассматриваются виды финансовых, операционных, технологических и внешнеэкономических рисков, освещаются механизмы их выявления, оценки и снижения. Также обосновывается значимость использования современных систем риск-менеджмента, включая международные стандарты, цифровые технологии и инновационные подходы. Результаты исследования показывают важность управления рисками для обеспечения устойчивой деятельности и повышения конкурентоспособности текстильных предприятий.

Ключевые слова: текстильная промышленность, управление рисками, производственные риски, финансовые риски, операционные риски, анализ рисков, оценка рисков, минимизация рисков, логистические риски, технологические риски, ISO 31000, устойчивое развитие, цифровая трансформация, корпоративное управление.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article analyzes the risks that arise in textile industry enterprises and methods for their effective management. In the textile sector, risk factors are intensified by the complexity of the production process, disruptions in raw material supply, price volatility, and shifts in global market demand. The article examines various types of risks - financial, operational, technological, and external economic - and highlights the mechanisms for their identification, assessment, and mitigation. It also substantiates the importance of using modern risk management systems, including international standards, digital technologies, and innovative approaches. The research findings demonstrate the significance of risk management in ensuring sustainable operations and enhancing competitiveness within textile enterprises.

Keywords: textile industry, risk management, production risks, financial risks, operational risks, risk analysis, risk assessment, risk minimization, logistics risks, technological risks, ISO 31000, sustainable development, digital transformation, corporate governance.

KIRISH.

Hozirgi vaqtda, to‘qimachilik sanoati korxonalarida risklarni boshqarish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda Yuqori raqobat sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarida risklarni boshqarish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Bozor sharoitida, raqobat mavjudligi va kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda, iqtisodiy, ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati risklarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Bozor iqtisodiyotida har bir korxona noaniqlik sharoitida ishlashga majbur, chunki muvaffaqiyatga erishish uchun texnik va texnologik yangiliklarni joriy etishga tayyor bo‘lishi talab etiladi, va bu ajralmas ravishda risk bilan bog‘liq.

METODOLOGIYA.

Bundan tashqari, ilgari markaziy boshqariluvchi iqtisodiyot sharoitida zararli iqtisodiy faoliyat xarajatlarini davlat qoplab kelgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyotida bu xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxona zimmasiga tushadi. Shuning uchun, yangi vaziyatga mos choralar va usullarni ishlab chiqish, risklarning mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini oldini olish, ularni tahlil qilishni korxona rahbariyati qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish amaliyotiga joriy etish zaruriyati obyektiv ravishda yuzaga keladi. Shu munosabat bilan risklarning kelib chiqish manbalarini va sabablarini aniqlash, ularning namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish, baholash usullarini ishlab chiqish va ularni yengish yo‘llarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Bu esa boshqaruv tizimini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini ta’minlaydi, tizim ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga moslasha oladi va yuzaga kelayotgan risk tendentsiyalariga

ISSN 3030-3907

maqsadli ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.To‘qimachilik sanoati korxonalarining faoliyati investitsion, sanoat, ishlab chiqarish va boshqa turdagi faoliyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil risklar bilan chambarchas bog‘liqdir. 1-rasmda (to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalari risklarining tasnifi) to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalariga xos bo‘lgan asosiy tashqi va ichki risklar guruhlari keltirilgan.



1 rasm

To‘qimachilik sanoatidagi har bir alohida korxonaga xos bo‘lgan risklar risklar reyestrida aks ettiriladi To‘qimachilik sanoati korxonalaridagi risklarni tahlil qilish natijasida shuni aniqlash mumkinki, miqdoriy ko‘rsatkichlar nuqtayi nazaridan to‘qimachilik tarmog‘i uchun eng muhim risklar 1-jadvalda keltirilgan risklar hisoblanadi.

1 jadval

Ichki	**Tashqi**
Ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi riski	Mehnat bozorida kerakli miqdorda malakali kadrlarning yetishmasligi riski
Asosiy uskunalarning ishdan chiqishi (buzilishi) riski	Xomashyo narxlarining o‘zgaruvchanligi riski
Korxonaning o‘z strategik maqsadlarini noto‘g‘ri (noadekvat) shakllantirish riski	Xaridorlarning mahsulotni sotib olish majburiyatidan voz kechish riski
Malakali ishchi kuchining ketib qolishi (oqib chiqib ketishi) riski	Mahsulotga talab bo‘lmaslik (talabsiz qolish) riski

ISSN 3030-3907

Yong‘in natijasida mulkning yo‘qotish riski	Bozor omillarining salbiy dinamikasi riski
Aylanma mablag’larning yetishmasligi riski	Eksport bo‘yicha past talab riski
Uskunalar yetishmasligi riski	Raqobatbardosh import riski

Risklar korxona faoliyatiga ham ijobiy (imkoniyatlar), ham salbiy (tahdidlar) ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Vaziyatga qarab, korxona ulardan bir strategiyani qo‘llashi mumkin. Risklarga javob berishning turli strategiyalari mavjud [4] (2-rasm). Korxonalar har kuni risklarning ta’siriga duch keladi**.** Risklarni aniqlash va tahlil qilish, so‘ngra ularni baholash orqali korxonalar risklarni boshqaradi



2-rasm. Risklarga javob berishning turli strategiyalari


Amaliyotda odatda riskni kamaytirish bir nechta usullari bir vaqtda qo‘llanadi**,** va ularning kombinatsiyasi risk-menejment tomonidan ishlab chiqilgan bir qator prinsiplarga asoslanadi:

- Tashkilot o‘zining sof kapitali imkoniyatidan ortiq riskga duch kelolmaydi;
- Kichik foyda uchun katta narsalarni xavf ostiga qo‘yish maqsadga muvofiq emas;
- Shubha ostidagi qaror odatda qabul qilinmaydi;
- Riskning oqibatlarini ko‘rib chiqish majburiydir;
- Har doim bir nechta mumkin bo‘lgan qaror variantlarini ko‘rib chiqish zarur.

TADQIQOT NATIJASI

Butun risklarni boshqarish jarayoni, shuningdek, ularni kamaytirish jarayoni bir qator bosqichlardan iborat bo‘lib, ular 3-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



3-Rasm. Risklarni boshqarish va kamaytirish jarayonining bosqichlari

Birinchi bosqichda tashkilot strategiyasi va joriy rejalari asosida maqsadlar, vazifalar hamda erishilishi ko‘zda tutilgan natijalar belgilanadi.Risklarni tahlil qilish bosqichida esa sifat va miqdoriy usullar qo‘llaniladi, jumladan: axborotni yig‘ish va qayta ishlashning turli metodikalari, uni o‘zaro taqqoslanadigan ko‘rinishga keltirish, matematik modellashtirish, statistik kuzatuv va boshqa usullardan foydalaniladi. Risklarni boshqarish usullari tanlanadigan bosqichda tashkilot uchun eng maqbul bo‘lgan riskni kamaytirish yoki uni butunlay bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqiladi. To‘rtinchi bosqich esa qabul qilingan choralar yordamida erishilgan natijani aniqlash, risklarning kelib chiqish sabablari va ularning mumkin bo‘lgan oqibatlari to‘g‘risida yangi bilimlarni shakllantirish, shuningdek, yangi axborotni hisobga olgan holda belgilangan maqsad va vazifalarni tuzatishdan iborat.

Shunday qilib, har bir bosqichda muayyan natijalarga erishiladi va aynan shu natijalar asosida keyingi bosqichlar amalga oshiriladi.

Korxonalarda risklarni boshqarish - bu to‘rtta bosqichni ketma-ket bajarish jarayoni hisoblanadi**.**




4 rasm risklarni boshqarishning bosqichma-bosqich bajarish jarayoni


Korxonalarda amalga oshiriladigan risk-menejment mumkin bo‘lgan zararlarni minimal darajaga tushirishga yo‘naltirilgan [1]. Ishlab chiqarish sharoitida korxonalarda risklarni boshqarish qabul qilinadigan risk

ISSN 3030-3907

kontseptsiyasiga asoslanadi va risk darajasini qabul qilinadigan qiymatgacha kamaytiradi [2]. 4-rasmda risk-menejmentning maqsadlari va vazifalari keltirilgan.



To‘qimachilik sanoati korxonalarida risk-menejmentni qo‘llash tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga, raqobatbardosh pozitsiyalarni kuchaytirishga, imkoniyatlardan foydalanishga va tahdidlarning yuzaga kelishini kamaytirishga yordam beradi. To‘qimachilik sanoati korxonalarida risklarni boshqarish tizimini shakllantirish va joriy etish 5-rasmda keltirilgan yo‘nalishlarni amalga oshirish imkonini beradi amalga oshirish imkonini beradi



XULOSA.

ISSN 3030-3907

Risk-menejment korxona boshqaruvi tizimining bir qismi bo‘lib, tashkilot faoliyatining samaradorligiga erishishga yordam beradi, noto‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatini kamaytiradi va noxush voqealarning salbiy oqibatlari xavfini pasaytiradi. Shunday qilib, risk-menejmentni faol qo‘llash to‘qimachilik sanoati korxonasini boshqarish samaradorligini oshirishga imkon beradi. To’qimachilik sanoati korxonalarida risklarni boshqarishni amalga oshirish tizimli va jarayonli yondashuvlar doirasida, soha xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy samarali boshqaruv usullari, shuningdek, risk-menejment vositalaridan foydalanib olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Министерство инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан. Отчет о состоянии текстильной промышленности Узбекистана за 2023 год. – Ташкент, 2023.
2. Шарипова Д. Ф. Бережливое производство как фактор повышения эффективности текстильных предприятий // Вестник Ташкентского института текстильной и легкой промышленности. – 2021.
3. Rustamova M M. Information support for management of investment activities in the conditions of a competitive environment at industrial enterprises of Uzbekistan // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Vol. 12, Issue 2. – February.
4. Рустамова М. М. Тўкимачилик корхоналарида инвестиция фаолиятини бошқариш самарадорлиги // Бизнес эксперт. – 2022. – № 2. – Б. 49 51.
5. Хакимов М. Ш. Инновационные подходы к управлению в легкой промышленности // Экономика и образование. – 2021. – № 4.
6. Алимов К. А., Юнусов Ш. К. Инвестиционная привлекательность текстильной отрасли Узбекистана // Вестник экономических исследований. – 2020. – № 3.

ISSN 3030-3907